



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTI MASALALARI

ERKIN O'XSHATISHLARNING BADIY MATNDAGI VAZIFASI

Latifova Maftuna Yashin qizi,

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

latifovamaftuna186@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi erkin o'xshatishlarning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari, turg'un o'xshatishlardan farqli jihatlari, ularning muallif yoki so'zlovchi tomonidan erkin yaratilishi, ya'ni mazkur o'xshatish turi o'z muallifiga ega ekanligi bilan alohidalik kasb etishi misollar bilan yoritilib berilgan. Maqolada ushbu o'xshatishlarning tabiatidan kelib chiqib bir qancha turlarga bo'linishi, ya'ni shaxs otlari, turdosh otlar, o'rin-joy otlari, narsa-buyum otlari, o'simlik otlari, hayvon, qush, hasharot nomlari, mavhum otlar, shuningdek, sifatdash, harakat nomi va h.k. so'zlar asosida shakllana olishi haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: erkin o'xshatish, turg'un o'xshatish, individual o'xshatish, individual uslub, individual nutq, muallif neologizmlari, umumxalq o'xshatishi, mavzuviy guruh, o'xshatish etaloni.

Erkin o'xshatishlar stilistik usul sifatida shoir va yozuvchilar ijodida mustaqil so'z turkumlarining ko'pchiligini, masalan, ot, sifat, fe'l, olmoshlarni jalb etish yo'li bilan namoyon bo'lganligi kuzatiladi. Olmoshlarda, xususan, kishilik olmoshlarida qo'llangan -dek, -day affiksi narsa-hodisalarga birikib kelgan mazkur affikslar kabi o'xshatish-qiyoslashni sof holda bera olmaydi. Ularda o'xshatish va ta'kid yonma-yon ifodalangan bo'ladi.

Osmon jismlari va u bog'liq bo'lgan o'xshatish va qiyoslashlar qadimdan mavjud va u bugun ham tilimizda keng iste'molda. Bu kabi erkin o'xshatish turlari Muhammad Alining "Ulug' saltanat" asarida ham ko'p kuzatiladi, ya'ni ijodkor aynan XIV va XV asrlarni yaqqolroq aks ettirish va kitobxonni ishonitirish, voqelikni teranroq anglatishda bunday o'xshatishlardan unumli foydalangan. Kuzatamiz: *Xonzoda xonim o'zini o'sha osmonga intilgan, undan bahra olgan, mehri bilan yashnagan yerdan tutmakka rozi!* (Muhammad Ali, "Ulug' saltanat")

Yozuvchi o'rni bilan fitonimlar vositasida ham erkin o'xshatishlar yarata olgan. Bunda fitonim o'xshatish etaloni vazifasida kelganligiga guvoh bo'lamiz. Bunda asarda o'z davri lashkarining miqdori va kuch-qudratni ifodalashda "daraxt, yaproq va qo'ziqorin" o'xshatishlaridan keng foydalanilgan bo'lsa, "gul, g'uncha va novda" qiyoslari orqali ayollarnig latofatini hamda qahramonlarning ruhiy kechinmalarini aks ettiradi. Masalan: *O'ng- u so'lda yana ham quyiroqda har joyda qorovullarning olachuqlari ko'klam yomg'iridan so'ng bodrab chiqqan qo'ziqorinlarday sochilib yotardi.* (Muhammad Ali, "Ulug' saltanat")

Ko'rinadiki, iste'dodli ijodkorlar yaratadigan o'xshatishlar o'zining asosiligi, mantiqiyliigi, ifodaviyligi jihatidan ahamiyat kasb etadi. Ular yozuvchi hamda shoirlarning badiiy niyatini amalga oshuruvchi tasvir vositasi sifatida badiiy matnda o'z mavqeyiga ega bo'ladi.

Alisher Navoiy g'azallarida o'xshatishlarning alohida turi qo'llanganki, mumtoz adabiyotimizda ilmiy manbalarda o'xshatishning kengaytirilgan formasi yoki laff va nashr nomi bilan yuritiladi. Garchi u tashbeh tarkibida o'rganilmasa ham uning zamirida o'xshatish yotadi, faqat ifoda usuliga ko'ra o'xshatishdan farqlanadi. O'xshatishning bu usuli ko'proq izohlovchi-izohlanmish shaklini eslatadi. O'xshatish qurilmalarida uning komponentlari semantikasida gorizontaal yo'nalish, laff va nashrda esa vertikal yo'nalish ifoda topadi. Ba'zan ular orasida deyarli tafovut sezilmaydi. Bu she'riy san'at she'r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini keltirib, keyin ular haqidagi hukmni bayon qilishga asoslanadi. Bundan asosiy maqsad esa nomlari keltirilgan narsa yoki tushunchalarni bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlashdir. Ushbu san'atni o'xshatishning kengaytirilgan yashirin formasi deyish mumkin. Navoiy she'riyatida o'xshatishning bu turi keng qo'llangan. Alisher Navoiy g'azallarida kengaytirilgan o'xshatish subyektlari baytning birinchi misrasida, o'xshatish etalonlari esa ikkinchi misrada keltiriladi.

Quyidagi misolda shoir yorning xattu xolini va oshiq ko'nglini dastlabki misrada sanab keltiradi, so'ng keying misrada ularning har biri haqidagi hukmni bayon qiladi:

*Xattu xoli nuqtasi yuz choklik ko'nglimdadur,
Bir qafasda turfadur, vah-vah, to'tiyu zog' (G'S.).*

Bu o'rinda shoir xatni to'tiga, xolni zog'ga, ko'ngilni qafasga qiyoslaydi.

Navoiy she'riyatida xat bilan bog'liq o'xshatishlar juda ko'p. Ularning hammasi ham betakror tashbehiv ifodalardir.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy ijodida o'xshatishning kengaytirilgan, uyushgan formasi ham keng qo'llangan. Mumtoz adabiyotda bu forma laff va nashr san'atiga teng keladi. Shoir g'azallarida bu san'atning o'ziga xos namunalarini, xilma-xil ko'rinishlarini yaratgan. Natijada, g'azallarning emoptSIONal-ekspressiv xususiyatlari ta'minlangan.

Shoira Zulfiyaning tahlilga tortilgan she'riy parchasida o'xshatish konsturksiyasining to'laqlonligi o'xshatish vositasi (arslondek, kabi, singari...) hamda o'xshatish asosi (baquvvat, kuchli) bilan bog'liq, aslida. Misrani tasavvuran qayta tuzamiz: *Shular parchalangan arslondek baquvvat tanangni/ Opichlab qirg'oqqa olib o'tganlar.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 5 жилдли. (4-жилд). –Т.: Маънавият, 2006. – 187 б.
2. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: Шарқ, 1999. – 240 б.
3. Ҳусайний А. Бадоийъ ус-санойиъ. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. – 132 б.
4. Исҳоқов Ё. Ташбеҳ. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, № 4. – Б. 27-33.
5. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – Б. 127.
6. Mahmudov N. O'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni./ Til tilsimi tadqiqi. –Т.: Mumtoz so'z, 2017. – 120 б.
7. 17. kizi Rustamova, G. B. (2025). TRANSFORMATIONAL ASPECTS INHERENT IN DENDRICAL IMAGES IN NEW UZBEK LITERATURE. Bulletin news in New Science Society, 2(6), 291-298.
18. Bakhronovna, G. R. (2023). The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(5), 237-242.